TA’LIM-TARBIYA JARAYONINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Yusupova Gulchehra, Umarov Otabek
Respublika musiqa va san’at kolleji

Bugungi kunda ta’lim jarayonini to’g’ri tashkil qilish, unda talaba faolligiga erishish, ta’lim metodlarini takomillashtirish masalalari chuqur o’rganilmoqda.

Ta’lim mazmunida jamiyatning ma’naviy va moddiy elementlari, shu jumladan, tabiat, jamiyat va inson haqidagi bilimlar, ijodiy faoliyat tajribasi, insonning munosabatlari, boshqarish faoliyati, xulqi va hayoti ifodalanishi lozim;

Ta’limning mazmuni umumiy, politexnik va kasbkorlik komponentlarining birligini aks ettirishi kerak;

Ta’limning mazmuni muayyan yoshga qaratiladi va jamiyatning rivojlanish darajasidan kelib chiqadi;

Ta’limning mazmunidagi ajratilgan to’rt komponent hajmi va mazmuni bo’yicha o’zaro aynan muvofiq bo’lishi kerak.

Maktab rivojlanishining hozirgi bosqichida ta’limni komp’yuterlashtirish masalasi g’oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. O’quvchilarni zamonaviy hisoblash texnikasidan foydalanishga doir bilim va malakalar bilan qurollantirish, o’quv jarayonida komp’yuterlarning keng qo’llanishini ta’minlash jamiyatda bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir. Mana shu vazifani amalga oshirish yuzasidan pedagogika fanida o’rta kasb – hunar kollejlarida elektron – hisoblash mikroprocessor texnikasini tatbiq etishning ikkita asosiy yo’nalishi ishlab chiqilmoqda. Bularning birinchisi – maktabdagi ta’limning mazmuniga o’quvchilar umumta’limiy tayyorgarligining komponenti sifatida dasturlashtirish asoslarini va hisoblash texnikasini joriy etish; ikkinchisi – kasb-hunar kollejlarini kompyuter texnikasi bilan ta’minlash va undan ta’limining vositasi sifatida foydalanishdir.

Pedagogika fani kollejlarning kompyuter texnikalaridan foydalanishdagi tajribalarini o’rganishi va umumlashtirishi: yalpi komp’yuter savodxonlariga javob beradigan yagona dasturlashtirish umumta’limiy kursini yaratish; dasturlashni o’rgatish boshlanadigan muddatni va kursning hajmini belgilashi, ta’limni mashina bazasidan foydalanish asoslarini ishlab chiqishi va boshqa vazifalarni ado etishi kerak.

Har bir o’tiladigan dars qaysi mutaxassislik, yo’nalish bo’lishidan qat’iy nazar 3 funktsiyani amalga oshiradi. Ular ma’lumot beruvchi yoki (didaktik ba’zi adabiyotlarda ta’limiy),rivojlantiruvchi va tarbiyaviy

1.Ta’limiy – o’rganilayotgan mavzu bo’yicha bilimlarni o’zlashtirish, ko’nikma va malakalarni shakllantirish.

2.Rivojlantiruvchi – talabalar ongli aqliy faoliyatiga erishish, pedagogik jarayonga talaba o’qituvchi hamkorligida hissiy aloqadorlikni ta’minlash, talaba bilish faoliyatini motivlashtirish, ya’ni talabaga bilimini namoyish qilish , amaliy faoliyatga qodir bo’lish va buning uchun bilim olish imkoniyatini ta’minlash, mustaqil va ijodiy ishni tashkil qilish .

3.Tarbiyaviy – muayyan maqsadlarga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyat jarayonida egallanilgan xulq – atvor normasidir.

Ta’lim jarayoni o’qituvchining talabaning bilim faoliyatiga mohirona ta’sir ko’rsata olishi natijasida amalga oshiriladi, ya’ni talaba bilimlarni idrok qilib, (idrok – borliqning odam ongida aks etishidir. Biz daraxt, odam, hayvon va h.k.z.larni idrok qilamiz), tushunib mustahkamlaydi.

Tushunishning indukciya (xususiy hollardan umumiy qoidaga borish), dedukciya (umumiydan xususiyga qarab fikr yuritish) jarayonlari amalga oshsa, mustahkamlashda yangi material idrok qilingan vaqt hosil bo’lgan muvaqqat bog’lanishlar mustahkamlaydi.

Ta’lim qoidalari o’qituvchining o’z faoliyatini rejalashtirish va talabalarning bilim, ko’nikma va malakalarini egallashlarida rioya qilishlari kerak bo’lgan asosiy qoida va yo’l – yo’riqlarni o’z ichiga oladi.

So’nggi yillarda olimlar tomonidan yaratilgan pedagogik adabiyotlarda didaktik qoidalar turlicha guruhlashtirilmoqda. Ana shularga asoslangan holda quyidagicha ta’lim printsiplarini ko’rsatib o’tish mumkin.

1. Ta’limning ilmiyligi. Nazariy qoidalarni tushunish – materialni ilmiy asosda izohlab berishning muhim belgisi bo’lib, u o’quvchining fikrlash faoliyati xususiyatlarini belgilaydi. Ilmiy bilimlar ilmiyligicha qolib, voqelikni har xil darajada aks ettirishi mumkin. Ilmiy izoh ta’limning hamma bosqichlarida, har bir sinfda amalga oshadi. Ilmiylik qoidalarining vazifalaridan biri – nazariy ma’lumotlar tizimini shu ma’lumotlarda tevarak – atrofdagi dunyoni qanchalik aks etganligi nuqtai-nazaridan bilib olishdir.

Mavzuni ilmiy nazariy jihatdan tushunish talabalarning dunyoqarashini, fikrlashini, e’tiqodini tarkib toptiradi. Yoshlarning ilmiy – tadqiqot ishlariga qiziqishini shakllantirib, zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti darajasiga muvofiq keladigan bilimlar bilan qurollantiradi.

Xulosa qilib, shuni aytish lozimki, ta’limning puxta o’zlashtirish qoidasi muhim didaktik talab va qoidalarni, ya’ni o’quvchilar tomonidan tizimli va ongli o’zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkam, esda saqlab qolish hamda o’zlashtirilgan ilmiy bilimlarni o’z turmush faoliyatlarida qo’llay olish malakalari bilan qurollantirishni nazarda tut

Adabiyotlar:

1. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining dolzarb muammolar. / Ed. M.I. Moro, A.M. Pishkalo. - M.: Pedagogika, 1997 yil.
2. Aleksandrova E.I., Matematika. 3-sinf uchun ish varaqasi. (Rivojlantiruvchi ta'lim dasturi). 2-qism. M.: "Pedagogika uyi", 1995 yil.
3. . Aleksandrova E. I. Boshlang'ich maktabda matematika o'qitish metodikasi. 1-sinf D. B. Elkonin tizimi - V.V. Davydov: To'rt yillik boshlang'ich maktab o'qituvchisi uchun qo'llanma. M.: Vita - Press, 2002.
4. . Almazova I.R. Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan topshiriqlar va misollar to'plami. M.: -Prosveshchenie, 1999 yil..